



2025 yil « 24 » iyul

№ 92-i

BUYRUQ

**“O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi Jizzax viloyat
boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlarini
takomillashtirish to'g'risida”**

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 22.07.2025 yildagi 46сонли buvrug'iga asosan sohada tatbiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarini takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomalar 5-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomalar 6-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalar 7-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma 11-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining hududiy bo'limlari buyruq bilan tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlar asosida bir oyda:

ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

har bir xodim kesimida tanishtirish ishlarini tashkil etsin;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (SH. Umarqulov)ga ma'lumot taqdim etsin.

3. Mazkur buyruqning 2-bandida ko'rsatilgan hududiy bo'limlar o'z bo'ysunuvidagi quyi bo'linmlarida ichki me'yoriy hujjatlar ijrosi bo'yicha nazoratni doimiy ravishda ta'minlasin.

4. Sanitariya-gigiyena bo'limi (E.Muzafaarov), Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo'limi (M.Muxiddinova) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (SH. Umarqulov) bilan birgalikda **ikki hafta muddatda** aholining sohadan **qoniqish darajasini aniqlash imkonini beruvchi qisqa savol va javoblar variantlari (so'rovnomani)** shakllantirib, Axborot xizmati bo'limi (E. Xaerullaev) va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limiga (N. Zaerieva) taqdim etsin.

O'z navbatida Axborot xizmati va Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limlari birgalikda **so'rovnomani** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi rasmiy veb-saytining ochiq ma'lumotlar bo'limiga joylashtirsin.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (SH. Umarqulov) va kadirlar bo'limi (N.Kamolov) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirib, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining hududiy bo'limlariga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin.

6. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 16-sentvabrdagi 52i-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

boshqarma boshlig‘i (davlat
hokimiyati va boshqaruv organlarida)



K.Ubaydullayev